

SMTI direktori O'zbekiston Prezidentining XXRga davlat tashrifining asosiy natijalarini qayd etdi



28 fevral kuni Toshkentda O'zbekiston Prezidentining XXRga davlat tashrifi yakunlariga bag'ishlangan "O'zbekiston va Xitoy: ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Aripov "Barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik: O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqich" mavzusidagi panel sessiyasida ma'ruzachi sifatida ishtirok etdi.

Ekspert o'z ma'ruzasida ikki davlat rahbarlari sammitining muhim natijalarini tahlil qildi.

Eldor Aripov O'zbekiston Prezidentining davlat tashrifi yuqori samaradorligi haqida gapirar ekan, bir qancha asosiy jihatlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Birinchidan, SMTI direktorining so'zlariga ko'ra O'zbekiston-Xitoy munosabatlari **yangi davrda barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik** darajasiga ko'tarilgani tashrifning muhim voqeasi bo'ldi.

"O'tgan vaqt ichida biz juda uzoq yo'lni bosib o'tdik. Biz ikki tomonlama hamkorlik uchun uch yuzga yaqin hujjatdan iborat juda mustahkam shartnomaviy-huquqiy asosni shakllantirdik", — deya xulosa qildi ekspert.

Bundan tashqari, uning fikricha, hukumatlararo, parlamentlararo va idoralararo darajada faol siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan.

Qo'shma bayonotning qabul qilinishi bilan munosabatlar shu qadar yuqori siyosiy ishonch darajasiga ko'tarildiki, ular xalqaro vaziyat dinamikasidan qat'i nazar, barqaror bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, ikki davlat rahbarlarining sammiti O'zbekiston-Xitoy munosabatlari o'zaro manfaatdorlik tamoyiliga asoslanishini tasdiqladi.

Eldor Aripov ta'kidlaganidek, "Bizning kun tartibimiz har qanday geosiyosiy vaziyatdan tashqarida bo'lib, sof pragmatik kontekstga ega".



Oliy darajadagi muzokaralar yakunlari bo'yicha erishilgan barcha kelishuv va shartnomalar aniq natijalarni ko'zlab, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. Xususan, ushbu hujjatlarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari importini kengaytirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, kambag'allikni qisqartirish sohasida kadrlar tayyorlash va boshqa ko'plab masalalar ko'zda tutilgan.

Shu nuqtai nazardan, ular asosan Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O'zbekiston qurilishi doirasida olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Uchinchidan, tashrif ikki davlat o'rtasida tamoman yangi yo'nalishlarda hamkorlik yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi.

Shu tariqa, oliy darajadagi muzokaralar natijasida elektron tijorat sohasida hamkorlikni faollashtirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Eldor Aripovning so'zlariga ko'ra, 2022-yilda Xitoyda onlayn savdolar hajmi qariyb 2 trln. dollarni tashkil etdi. Bu bozorni ishlab chiqaruvchilarimiz tomonidan o'zlashtirilishi ularga Xitoy bozorini egallashda ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi.

Bu O'zbekiston iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlarini rivojlantirishga kuchli turtki beradi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning yangi istiqbolli yo'nalishi, SMTI direktorining so'zlariga ko'ra, elektromobillar sohasidagi hamkorlikdir.

O'zbekistonda oxirgi uch yil ichida ushbu transport vositalari sotuvi 10 barobar oshdi. Xitoyning jami avtomobil importidagi ulushi 36 foizdan 80 foizga oshdi.

Davlat tashrifi chog'ida Shavkat Mirziyoyev va BYD rahbari hamkorlikda Jizzax viloyatida elektromobillar va gibrid avtomobillarni yig'ish loyihasini ishga tushirgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu BYD kompaniyasining Xitoydan tashqaridagi birinchi qo'shma qo'shma korxonasi bo'ladi.

To'rtinchidan, Urumchi shahrida bo'lib o'tgan mintaqalararo forum yakunlari bo'yicha O'zbekiston va Xitoy hududlari kengashi tuzildi.

Eldor Aripovning so'zlariga ko'ra, "bu mintaqalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni forumdan forumga emas, balki doimiy ravishda saqlab qolish imkonini beradigan juda muhim qadamdir.

"Ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalar, mohiyatan barcha sohalardagi hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlaydigan mustahkam bog'lovchi mexanizmlar vazifasini o'taydi", - deya xulosa qildi ekspert.

Markaziy Osiyo xalqaro instituti Xitoy Xalq Respublikasi elchixonasi bilan birgalikda SMTI va ikki davlat savdo-sanoat palatalari hamkorligida tashkil etilgan anjumanda O'zbekiston va Xitoyning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari, ekspertlari hamda mamlakatimizdagi Xitoy kompaniyalari vakillari ishtirok etdi.